

**YOSHLARIMIZNI VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASHDA AMIR TEMURNING “TEMUR TUZUKLARI”
ASARI MANBA SIFATIDA**

Xazratova Gulshoda Abdulatif qizi
IIVning Xorazm akademik litseyi,
Matematika fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari o‘quvchi-yoshlarimizni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Amir Tarag‘ay, To‘ra – tuzuk, Tuzuk, Jaloliddin Manguberdi, Kesh viloyati, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Urganch.

“ПРАВИЛА ТИМУРА” АМИРА ТИМУРА В ВОСПИТАНИИ НАШЕЙ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА КАК ИСТОЧНИК

Хазратова Гульшода Абдулатиф кизи
преподаватель математики Хорезмского академического лицея МВД.

АННОТАЦИЯ

В статье поясняется, что “Тузуклари Темур” Амира Темура является важным источником для воспитания наших студентов в духе патриотизма.

Ключевые слова: Амир Темур, Амир Тарагай, Тора-тузук, Тузук, Джалауддин Мангуберди, Кешский район, Ташкент, Самарканд, Шахрисабз, Ургенч.

AMIR TIMUR'S "RULES OF TIMUR" IN EDUCATING OUR YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AS A SOURCE

Khazratova Gulshoda Abdulatif qizi
is a teacher of mathematics at
Khorezm Academic Lyceum of MIA

ABSTRACT

In the article, it is explained that Amir Temur's “Tuzuklari Temur” is an important source for educating our students in the spirit of patriotism.

Key words: Amir Temur, Amir Taragay, Tora-tuzuk, Tuzuk, Jalaluddin Manguberdi, Kesh district, Tashkent, Samarkand, Shahrisabz, Urgench.

**“Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim.
Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim”**
Amir Temur

Dunyo tarixida qudratli sultanat barpo etgan Sohibqiron Amir Temur o‘zining azm-u shijoati, yuksak mahorati, mardlik va jasorati tufayli shonli tariximizda o‘chmas iz qoldirgan. U Kesh viloyatidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida 1336-yil 9-aprel kuni barlos urug‘ining oqsoqollaridan biri bo‘lgan Amir Tarag‘ay xonadonida tavallud topgan.

U o‘zining ilk harbiy faoliyatini qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib jasorat ko‘rsatgan va janglarda chiniqqan, harbiy mahorat hamda olighthimmatlilik sohibi bo‘lib borgan Amir Temur umri davomida to‘plagan boy tajribalari va kuzatishlariga tayanib, o‘zining sultanatni tutib turish va uni odilona boshqarish borasidagi qarashlarini “Tuzuk”larida jamlagan. “To‘ra – tuzuk” u podshoh, hukmdorlarning siyosiy faoliyatiga doir tarjimai holi, siyosiy faoliyatlari, ularning davlatni boshqarishda amalda qo‘llanilgan qonun-qoidalari, xalq va jamiyat oldidagi haq-huquqlari, turish-turmushi, axloq-odobi, davlatni adolat tamoyiliga asosan boshqarishi, turli mansab egalariga beriladigan huquqlar, ularning burchlari, huquq va burchlarining qonun doirasida qat’iy belgilab qo‘yilishi, vazifalari, xalq bilan muomala-munosabatlari, xayr-saxovatga doir ezgu ishlari, davlat amaldorlari va fuqarolarning xizmatlariga yarasha ularni taqdirlash masalalari, soliq, harbiy xizmat, jazo berish, mamlakat tinchligi va urush sharoitidagi holatlari va murakkab vaziyatlardagi chora tadbirlarga doir qonun-qoidalarning majmuasidan iborat oliy huquqiy hujjatdir”¹. Yuqorida qayd etilganidek, “Tuzuk”da sultanat boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha masalalar ilgari surilgan bo‘lib, ulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Amir Temur o‘z avlodining mamlakatlarni idora etishida qo‘llanma bo‘lishi uchun o‘zi qo‘llagan ishlarni **o‘n ikki tuzukka** jamlagan. Ular quyidagilar:

Birinchi tuzuk: islom dinini qo‘llab-quvvatlash;

Ikkinci tuzuk: aholining o‘n ikki tabaqa va toifasini qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maslahatlar qilish;

Uchinchi tuzuk: sultanat ishlarini muruvvat, sabr-toqat, murosa yo‘li bilan yurgizish;

To‘rtinchi tuzuk: sultanat ishlarini to‘ra va tuzukka asoslangan holda boshqarish;

¹ Temur tuzuklari. T., “Shodlik nashriyoti”, 2018. 4-b.

Beshinchi tuzuk: harbiylarni munosib (unvon, oltin-kumush bilan) taqdirlab turish (Amir Temur ularning ko‘magida 27 podshohning taxtini egallaganiga alohida e’tibor qaratgan); saltanat ishlarida o‘z halovatidan voz kechish;

Oltinchi tuzuk:adolatli, insofli, kechirimli (ziyon yetkazganlarga ham) bo‘lish;

Yettinchi tuzuk: o‘qimishli, oqil kishilarning hurmatini joyiga qo‘yish, miskinlarga yordam berish, g‘iybatchilarni o‘zidan uzoq tutish;

Sakkizinchi tuzuk: boshlagan ishni oxiriga yetkazish, g‘azab qilmaslik, tarixda o‘tgan sultonlarning qonun, turish-turmushlarini o‘rganish, xulosalar chiqarish; zulmu buzuqchilikdan saqlanish;

To‘qqizinchi tuzuk: har bir diyor aholisining ahvoldidan ogoh bo‘lishda mahalliy xalq mentalitetini inobatga olish;

O‘ninchchi tuzuk: o‘ziga xayrixoh bo‘lgan har qanday insonga hurmat ko‘rsatish; xatosini anglab kelgan adashganlarga ham muruvvat ko‘rsatish;

O‘n birinchi tuzuk: martabaga erishganda yelkadosh bo‘lganlarning xizmatini unutmaslik (mol-u mulk, naqd pul bilan);

O‘n ikkinchi tuzuk: do‘st-dushmanligiga qaramay sipohlarni hurmat qilish; xiyonatkorlarga ishonmaslik.

O‘n ikki tuzukka tayanib, mamlakatning o‘n ikki toifa kishilarini bilan munosabat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib saltanat ishlarini olib borgan Amir Temur mamlakatni o‘z tasarrufida saqlab turish uchun yana o‘n ikki amalni ham o‘ziga shior qilib oladi. Ular quyidagilar:

Birinchidan – podshoh o‘z so‘ziga ega bo‘lishi, ya’ni uning so‘ziga hech kim daxl qilmasligi kerak.

Ikkinchidan – podshoh adolatparvar bo‘lishi; qoshida insofli, adolatli vazirlarni tutishi (bundan maqsad podshohga adolatparvarlik borasida yelkadosh bo‘lish);

Uchinchidan – podshohning chiqargan hukmiga hech kim aralashmasligiga erishish;

To‘rtinchidan – podshoh o‘z qarorida qat’iy bo‘lishi;

Beshinchidan – podshoh hukmining joriy etilishiga, amalga oshirilishiga erishish (garchi kimdir hukmni zararli deb bilsa ham);

Oltinchidan – podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib qo‘ymaslik (bunda dunyo bevafo xotinga o‘xhatilgan), bu ishlarni ishonchli bir necha kishiga bo‘lib berish;

Yettinchidan – podshohlik ishlarida har kimning fikrini eshitib, ko‘ngli xushlagan foydalirog‘ini vaqtida ishlatishga erishish;

Sakkizinchidan – saltanat ishlarida boshqalarning so‘zi va fe’liga qarab ish tutmaslikka erishish;

To‘qqizinchidan – podshohlik haybati uning amr-farmonlariga boshqalarning qarshilik qilishga jur’at etolmasligiga erishish;

O‘ninchidan – podsho har qanday ishni o‘z erkicha qilishga erishish;

O‘n birinchidan – podshohlik ishlarida hech kimni o‘ziga sherik bo‘lmasligiga erishish;

O‘n ikkinchidan – podshoh o‘ziga yaqin kishilarning holidan xabardor bo‘lib turishi, ya’ni sotqinlik, josuslik va g‘iybatning oldini olishga erishishi kerak.

Yuqorida tuzuk va shiorlarni o‘ziga dastur ul-amal qilib olgan buyuk davlat arbobi Amir Temur xizmatlarini inobatga olib, uning davlatchiligidagi barpo etishdagi, fan, ta’lim va madaniyat taraqqiyotidagi ulkan hissasini nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 26-dekabrdagi PF-1333-sonli farmoniga ko‘ra 1996-yil “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi va shu yili uning 660-yilligi mamlakat va xalqaro miqyosda Parijda keng nishonlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 22-apreldagi 2251-sonli Qaroriga ko‘ra Amir Temur ordeni ta’sis etildi.

Yurtimizda Jaloliddin Manguberdi va Amir Temurlarning yurt ozodligi va xalq farovonligi borasidagi qilgan ishlarini o‘rganish va jamoatchilikka keng miqyosda yetkazish, ularning nomini abadiylashtirish borasidagi ishlar shular bilan cheklanib qolmadidi. Ularning nomi bilan bog‘liq bog‘lar, memoriy obidalar barpo etildi, shoir va yozuvchilar, olimlarimiz tomonidan bir qator badiiy, ilmiy asarlar yaratildi. Amir Temurga Toshkent (1994-yil), Samarqand (1996-yil) va Shahrisabz (1996-yil) shaharlarida, Jaloliddin Manguberdiga esa Urganch (1999-yil) shahrida haykal o‘rnatildi. Amir Temur nomi bilan bog‘liq dunyoning o‘ttiz uch mamlakatida besh yuzdan ortiq ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Zero, Amir Temurning o‘zi aytganidek, “... kimki mukofotga loyiq ish qilsa, mukofotsiz qolmaydi, jazoga loyiq ish, jazosiz qolmaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: O‘zbekiston, 1998..
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
4. Temur tuzuklari. -T.: “Shodlik nashriyoti”, 2018.
5. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -T.: Fan, 1996.
6. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. –T.: Fan, 1996.
7. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rnii va roli. -T.: Fan, 1993.